

MUYIDDINOV BEKALI,

BUKHARA STATE
UNIVERSITY
1ST YEAR MASTERS

QORYOG'DIEV Z.

BUKHARA STATE
UNIVERSITY (PHD)



**ABOUT THE CONQUEST OF BUKHARA BY THE
KHOREZMSHAHS**

О ЗАВОЕВАНИИ БУХАРЫ ХОРЕЗМШАХАМИ

**BUXORONING XORAZMSHOHLAR TOMONIDAN
EGALLANISHI XUSUSIDA**

Abstract: This article has a worthy place in the history of Uzbek statehood, in Central Asia and the Middle East before the Mongol invasion of his time, which had a strong influence on the political life of the peoples living there to the political events of the reign of the leading dynasty - the Anushtegenids is dedicated. The article also covers the history of the dynasty's origins, the complex history of the dynasty's struggle for liberation from Seljuk influence, and the conquest of Movoraunnahr, particularly Bukhara.

Key words: Khorezm, Seljuks, Anushtegenis, colonial, Bukhara, Takash, Bahauddin al-Baghdadi, Jaihun, sayyids, collection of documents, shihna, khutba, mufti, Badriddin, label, great jihad.

Аннотация: Эта статья занимает достойное место в истории узбекской государственности, в Средней Азии и на Ближнем Востоке до монгольского нашествия своего времени, оказавшего сильное влияние на политическую жизнь проживающих там народов к политическим событиям правления ведущей династии – Ануштегенидов посвящен. В статье также освещается история происхождения династии, сложная история борьбы династии за освобождение от влияния сельджуков и завоевание Моворауннахра, в частности Бухары.

Ключевые слова: Хорезм, сельджуки, ануштегенцы, колонии, Бухара, Такаш, Бахауддин ал-Багдади, Джайхун, сайиды, собрание документов, шихна, хутба, муфтий, Бадриддин, ярлык, великий джихад.

Anotatsiya: Ushbu maqola o'zbek davlatchiligi tarixida munosib o'rin tutgan, mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan davrda O'rta Osiyo va O'rta Sharq hududlarida yashovchi xalqlarning siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsata olgan o'z davrining yetakchi sulolasi - Anushtegeniylarning hukmronligi davri siyosiy voqealariga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada mazkur sulolaning kelib chiqishi tarixi, sulola vakillarining saljuqiylar ta'siridan ozod bo'lish uchun olib borgan murakkab kurash tarixi, Movoraunnahrning, xususan Buxoro hududining egallab olinishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, Saljuqiylar, Anushtegeniylar, mustamlaka, Buxoro, Takash, Bahouddin al-Bag'dodiy, Jayhun, sayyidlar, hujjatlar to'plami, shihna, xutba, muftiy, Badriddin, yorliq, ulug' jihod..

KIRISH (INTRODUCTION)

Qadim zamonlardan buyon Xorazm taqdiri jahon tarixchi olimlarining diqqat e'tiborini tortib keladi. Xorazm Amudaryoning quyi oqimi havzasida joylashgan bo'lib, arxeolog qadimshunoslar buyarlarda eng qadimiy dehqonchilik madaniyati o'choqlarini topganlar. Miloddan avvalgi ming yillik o'rtalaridayoq bu yerlarda yuksak taraqqiy etgan sug'orish tarmoqlari suv inshootlari barpo etilgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida esa Xorazm markaziy Osiyo va Eron olamida ham eng muhim iqtisodiy madaniy markazlardan biri edi [1; 9]

XII-asr oxiri va XIII -asr boshlaridan musulmon sharqining eng yirikva eng qudratli davlati Xorazm saltanati edi. Tadqiqotchilar bu davlat tarixiga kata qiziqish bilan qarashlarning yana bir sababi Xorazm butun musulmon sharqida mug'ul istilochilari hujumining zarbalarini birinchi bo'lib qaytarishga uringan, qo'shinlari son jihatdan mo'g'ullarnikidan ustun bo'lsa ham (sulton Alouddin Muhammadning noto'g'ri siyosati tufayli) mag'lubiyatga uchragan ammo mo'g'ul bosqinchilarining eng ko'p dodini bergan davlat edi [2;316]

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Anushteginlar sulolasi vakillari, sobitqadamlik bilan, uzoqni o'ylab qilingan diplomatik ustomonlik, mavjud siyosiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan oqilona faoliyat olib borganlari natijasida ulkan imperiyani yarata olganlar. Bunda ular, Saljuqiylar sulolasining zaif tomonlaridan ustalik bilan foydalandilar, Qoraxitoylar, Qoraxoniylar, G'uriylar, Abbosiy xalifalar bilan goh nozik diplomatik usul, goh kuch ishlatish oqibatida buyuk saltanatga asos soldilar.

Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yaratilgan mahalliy manbalar va matbuot materiallari
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Sulola asoschisi Anushtegin, o'g'uzlarning bekduli urug'idan bo'lib, saljuqiy hukmdor Sulton Malikshoh (1072-1092 y.y) saroyida tashtdorlik lavozimidan 1077-yili Xorazm shihnasi (boshqaruvchisi) lavozimiga tayinlanadi. [3;131] Anushtegin (1077-1097 y.y) o'z faoliyati davomida Saljuqiylarning ishonchiga sazovar bo'ldi. Bu ishonch tufayli, uning avlodlari Xorazmda hukmronlik qilishni qonuniy meros sifatida qabul qilib oldilar. Xorazmshohlar-Anushteginlar sulolasi asoschilarining tarixiy xizmati shunda ediki, ular rasman saljuqiylarga qaram bo'lgan holda, amalda bo'lajak mustaqil Xorazm davlatining poydevorini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.[4; 244]

Aloviddin Takash 1172-yilning dekabrda qoraxitoylar malikasi Chen Tiyon yordamida rasman taxtga o'tirgan bo'lsada, aka-ukalar o'rtasida kurash davom etdi. Chunonchi, 1174-yilda Sultonshoh Mahmudning onasi Turkon xotun Nishopur hukmdori Oy-Aboga qimmatli sovg'alar yuborib, Takashga qarshi ittifoq taklif qildi. [5;174],

O'sha yili Gurganjdan 20 farsah uzoqlikdagi Subvurni shahri ostonasida Oy-Abo qo'shinlari Alovuddin Takash qo'shinlari bilan to'qnashdi. Bu jangda Takashning qo'li baland kelib, Oy-Abo asir olindi va qatl etildi. Turkon xotun va Sultonshoh Kaspiy dengizining sharqiy sohilidagi Dehistonga qochdilar. Shundan so'ng Aloviddin Takash Xorazmda mustahkam o'mashib, qoraxitoylarga va'da bergan o'lponni to'lashdan bosh tortadi. Bunga javoban qoraxitoylar yana Xorazmga yurish qildilar, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Sultonshoh ixtiyoriga kichik bir qo'shin qoldirib o'zlari orqaga qaytadilar. Bu davrga kelib Xurosonning anchagina qismi Xorazm davlatiga qo'shilgan bo'lsa-da, Marv va uning atroflarda, Sabzavorda Sultonshoh Mahmud hukmronlik qilardi. 1187-yilda aka-ukalar o'rtasida Nishopur ostonasida yana to'qnashuv bo'lib, Takash g'olib bo'ldi. Sultonshoh Marvga chekinishga majbur bo'ldi.

590 (1193) yil Xorazmshohlar davlatining asta sekin yuksalish va kuchayishining boshlanish yili bo'ldi. Musulmon olami Sharqida murakkab siyosiy vaziyatlarda davlatning mustahkamlanishiga ma'muriy boshqaruv va qo'shinni aniq tashkil qilish yo'li bilan erishildi. Ko'p o'tmay bu davlat O'rta Osiyo va Eron davlatlari orasida eng qudratli davlatga aylandi.[6;63] Xuddi shu vaqtda, hijriy 578 yil 12 jumadul oxirida Xorazmshoh Movarounnahr ustiga yurish qiladi va Buxoroni bosib oladi. Shaharni olish uchun bo'lgan jang haqida uning zafar yorligi-fathnomasi darak berib turibdi. Bu yorliqda Buxoroning bosib olinishi, "ulug' jihod" (jihodi a'zam) deb baholanadi. Yorliqda aytiladiki, "olovday dahshatli, shamolday uchqur" Xorazm qo'shini bir lahzada Jayhundan o'tdilar va Buxoro zaminiga bosib kirdilar. 1182-yil kuzida Xorazmshoh Takish Movarounnahrda harbiy yurish qilib, 15-oktyabrda uning yirik shaharlaridan Buxoroni egallaydi. [7;317] 1182-yil kuzida Xorazmshoh Takash Movarounnahrda harbiy yurish qilib, 15 -oktyabrda uning yirik shaharlaridan bo'lgan Buxoroni egallaydi. Buxoroda Xorazmshoh Takish nomiga xutba o'qiladi va tanga zarb qilina boshlandi. Xorazmshoh bu yerda ikkita farmon e'lon qildi. [8;64]

Ular Buxoroni bosib olishda yordam ko'rsatgani uchun sayyidlardan biriga minnatdorlik izhor qiladi. Bu sayyid vazifasidan olingan Buxoro xatibi va muftiysi Badriddin o'rniga tayinlanadi. Xorazmshoh unga shaharda xutba o'qitishga, Xalifa nomidan keyin Takish nomini qo'shib aytishga buyruq berdi.[9;64] Buxoroni egallash Takish uchun oson ish bo'lmadi. Shahar aholisi taslim bo'lishni istamas, hatto Xorazmshohni masxara qilib, ustidan kulardi. Ular bir ko'zli itni olib keldilar (Takishning bir ko'zi ko'r edi) chakmon va kalonsuv kiydirib, qal'a devori telasi ga chiqarib qo'ydilar va "Mana sizning Xorazmshohingiz", deb manjanakdan o'qqa tutdilar. Xorazmliklar esa "Ey kuffor lashkarlari Yo ajnad ul-kufr. Siz islom dinidan kaytgansiz, shu qaysar fe'lingiz da davom etmokdasiz", deb javob qaytardilar. Ammo, Buxoro qo'lga kirgandan keyin Xorazmshoh shafqatli ekanini ko'rsatdi, ularni qo'rsiligi uchun jazoga tortmadi.

Xorazmshoh Takish Sultonshohga qarshi kurash olib borgan davrda qo'shni davlatlarning boshliqlari bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolishga harakat qildi. Xorazmshoh devon al-insho mahkamasi boshlig'i Bahouddin al-Bag'dodiy tuzgan "At-tavosil plat tarassul" rasmiy hujjatlar to'plami Takishning bu davrdagi diplomatik faoliyati bilan tanishish imkonini beradi. Shu tariqa Buxoro hududi Xorazmshohlar tomonidan egallab oldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xorazm yozma merosida o'zbek xalqining davlatchiligi tarixi masalalari keng yoritilgani barcha mutaxassislarga ma'lum. Uch ming yillik davlatchilik an'alariga ega bo'lgan xalqimiz o'tmishini turli til va davrlarda bitilgan yozma manbalar orqali o'rganilishi manbashunos olimlar va tarixchilarning muhim ilmiy yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Xorazmda bitilgan tarixiy yozma manbalar o'rta asrlar, yangi davrda yaratilgan bo'lib, ular fors, arab va turkiy tillarda yetib kelgan. Davr o'tishi bilan ko'pgina manbalar yo'qolib ketgani ham ma'lum. Shu davrlarda yozilgan manbalar 1097-yildan, ya'ni Xorazmshoh - anushteginlar davlatining tashkil topishidan to 1231-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Takash hukmronligi davriga kelib Movaraunnahr egallana boshlandi. Buxoro hududining qay tariqa qiyinchilik bilan egallanganligi, qarshilik harakatlari maqolada yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. A.Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Sharq, Toshkent, 2001
2. B.J. Eshov, A.A. Odilov. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2014
3. Саидов Ш.Ж. Жалолиддин Мангуберди давлати. –Т., 2000
4. Машарипов О. Хоразм тарихидан саҳифалар // Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1994
5. Shamsutddinov, Sh.Karimov. Vatan tarixi. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2010
6. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) // Т.: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1998.
7. 13. Temirov F., Umarov B. Practical application of family, marriage and inheritance rights in bukhara emirates // Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 1. - S. 1201-1207.
8. 14. Temirov F. Xalikova N. From the history of foreign policy and development of diplomacy in the emirates of bukhara // Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 1. - S. 1276-1282;
9. 15. Temirov F. PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 2 Issue: 01 | 2022
10. 16. Temirov F. Of the journalistie work of Sadridin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. Irish Interdisciplinary of Science & Research (IJSR) Vol.6, Iss.1.Pages,12-17. January-March 2022.
11. Baxronovna R. D. French explorers' expeditions in Central Asia //International Journal on Integrated Education. – 2019. – T. 2. – №. 6. – C. 253-256.
12. Rasulova D. B. The Role of French Scientists in the Study of Nature and Climate in Turkestan (Early XIX-XX Centuries) //JournalNX. – C. 412-417.
13. Rasulova D. B. HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ORIENTAL SCHOOLS IN FRANCE (IN THE XVI-EARLY XX CENTURIES) //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – C. 913-918.